

Andijon viloyat statistika boshqarmasi



2017 yil yanvar-iyun oylarida Andijon viloyatining sanoat ishlab chiqarishi

RAQAMLAR:

- Sanoat ishlab chiqarish hajmi **5650,9 mlrd. so'mni**, o'sish **30,1 %** ni;
 - Iste'mol tovarlari ishlab chiqarish hajmi **3831,2 mlrd. so'mni**, o'tgan yilning tegishli davriga nisbatan o'sish sur'ati **38,4 %** ni;
 - Iste'mol tovarlarning jami sanoat ishlab chiqarish hajmidagi ulushi **67,8 %** ni;
 - Sanoat ishlab chiqarishda kichik biznesning ulushi – **42.5 %** ni tashkil etdi

Dastlabki ma'lumotlar bo'yicha 2017 yilning yanvar-iyun oylarida viloyatimizda korxonalar tomonidan 5650,9 mlrd.so'mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarilgan bo'lib, o'tgan yilning tegishli davriga nisbatan o'sish sur'ati 130,1 % ni tashkil etdi.

- Mahsulotlar ishlab chiqarishning eng katta hajmi ishlab chiqaradigan (qayta ishlaydigan) korxonalar tomonidan ishlab chiqarilgan bo'lib, ularning jami sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishdagi ulushi 67,8 foizni tashkil etdi. Sanoat ishlab chiqarishning oshishiga elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash korxonalar ham hissa qo'shdi, ularning jami sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishdagi ulushi 4,4 foiz, o'tgan yilning mos davriga nisbatan o'sish sur'ati 118,1 foizni tashkil etdi.

2017 yil yanvar-iyun oylarida asosiy iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha sanoat ishlab chiqarish tarkibi

Ishlab chiqaradigan sanoat (o'sish sur'ati **130,1 %**, jami sanoat ishlab chiqarishdagi ulushi **94,6 %**)

Tog' - kon sanoati va ochiq konlarni ishlash (o'sish sur'ati **114,7 %**, jami sanoat ishlab chiqarishdagi ulushi **0,8 %**)

Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash (o'sish sur'ati **118,1 %**, jami sanoat ishlab chiqarishdagi ulushi **4,4 %**)

Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni utilizatsiya qilish (o'sish sur'ati **110,9 %**, jami sanoat ishlab chiqarishdagi ulushi **0,2 %**)



Tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash.

Tog'- kon sanoati va ochiq konlarni ishlash korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 43,5 mlrd.so'mni yoki jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 0,8 % ni tashkil etdi.

Ishlab chiqaradigan sanoat (qayta ishlash sanoati).

2017 yilning yanvar-iyun oylarida ishlab chiqaradigan sanoat korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 5346,9 mlrd.so'mni yoki jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 94,6 % ni tashkil etdi.



Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash.

Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 248,1 mlrd.so'mni (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 4,4 % ni) tashkil etdi.



Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni utilizatsiya qilish.

Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni utilizatsiya qilish korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 12,4 mlrd.so'mni (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 0,2 % ni) tashkil etdi.




Shahar va tumanlarning sanoat ishlab chiqarishi.

Andijon viloyatida sanoat ishlab chiqarish hajmi tarkibida eng ko'p Asaka tumani (viloyatida sanoat ishlab chiqarish hajmning 38,7 % ulushini), Andijon shaharlari (23,6 %), Honobod shaharlari (4,8 %), Shahrixon (4,7 %), Andijon (4,7 %) tumanlari hissasiga to'g'ri kelmoqda.

2017 yilning yanvar-iyun oylarida hududlarning jami sanoat ishlab chiqarish hajmi va o'sish sur'atlari

1-diagramma



Shu bilan birga eng kam ulush Bo'z (0,9 %), Ulug'nor (0,9 %), Buloqboshi (1,5 %), va Paxtaobod (1,2 %) tumanlariga to'g'ri keladi.


Shuni ta'kidlash joizki, raqobatbardosh mahsulot ishlab chiqarish bo'yicha yuqori texnologiyali loyihalarni amalga oshirish natijasida Andijon (2017 yilning yanvar -iyun oylariga nisbatan 129,5 % ga), Honobod (133,2 % ga) shaharlarida, Asaka (161,4 % ga), Jalaquduq (115,2 % ga) tumanlarida sezilarli darajada ishlab chiqarish hajmining oshishi ta'minlandi.

Iste'mol tovarlari ishlab chiqarish.

Tayyor mahsulotlar turlarini kengaytirish va ishlab chiqarilishini qo'llab-quvvatlash bo'yicha amalga oshirib kelinayotgan chora-tadbirlar natijasida iste'mol tovarlar ishlab chiqarish hajmi 3831,2 mlrd.so'mni tashkil etdi va 2016 yilning yanvar-iyun oylariga nisbatan 138,4 %, jami sanoatdagi ulushi esa 67,8 % ni tashkil etdi.


2017 yilning yanvar-iyun oylarida iste'mol tovarlari ishlab chiqarish hajmi va o'sish sur'atlari

2-diagramma




Yanvar-iyun oylarida iste'mol tovarlari ishlab chiqarish hajmining tarkibi, % da

3-diagramma



2017 yilning yanvar-iyun oylarida shahar va tumanlar bo'yicha iste'mol tovarlari ishlab chiqarish hajmi va o'sish sur'atlari

4-diagramma



Tayyor mahsulotlar, butlovchi buyumlar va materiallar ishlab chiqarishni mahalliyashtirish dasturini amalga oshirish – sanoat ishlab chiqarishi hajmlari o`shining omillaridan biridir

Tayyor mahsulotlar, butlovchi buyumlar va materiallar ishlab chiqarishni mahalliyashtirish hajmlarining o`shishi bo`yicha chora-tadbirlarning amalga oshirilishi, korxonalarining ishlab chiqarish faoliyati uchun zarur bo`lgan sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishni o`shining va import tovarlari qisqarishining omillaridan biri hisoblanadi.

Tarmoqlararo sanoat kooperasiyasini rivojlantirish, tayyor mahsulotlar, butlovchi qismlar va materiallar ishlab chiqarishni mahalliyashtirish dasturini amalga oshirish doirasida tadbirkorlik sub`ektlari tomonidan 2017 yilning yanvar-iyun oylarida 703,6 mlrd.so`mlik mahalliyashtirilgan mahsulot ishlab chiqarildi.

Tayyor mahsulotlar, butlovchi buyumlar va materiallar ishlab chiqarishni mahalliyashtirish dasturining asosiy ko`rsatkichlari

	2016 y. yanvar-iyun	2017 y. yanvar-iyun
Loyihalar soni,birlik	43	55
Korxonalar soni,birlik	30	34
Ishlab chiqarish hajmi,mlrd.so`m	96,8	703,6
Eksportha qilingan mahalliyashtirilgan mahsulot hajmi, ming AQSh doll.	691,8	16665,2
Yaratilgan yangi ish o`rinlari,birlik	40	36

Andijon viloyat statistika boshqarmasining Sanoat statistikasi bo`limi

Nashr uchun mas`ul:

Y.Ataxanov

Aloqa telefoni:

(0371) 230-82-57